O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti


2026- yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi
II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi ichki mahsulot
III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi
IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi
V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat
VI. O‘zbekiston bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot
VII. Izohlar
VIII. Havolalar

I. Yalpi ichki mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda **1 755,5** trln so‘mni hamda 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o‘sish sur’ati **8,3** % ni tashkil etdi.

YAIM hajmi va o‘sish sur’atlari[1], *yanvar-sentabr*




Mavzuga doir havola:
YAIM (YAHM) hajmi (choraklik)
YAIM (YAHM) o‘sish sur’atlari (choraklik)

[1] **2022-2025- yillarning yanvar-sentabr oylari ma’lumotlari Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalarini hisobga olgan holda qayta baholangan.**

YAIM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan **108,4** % ni tashkil etdi. YAIM deflyator indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoat tarmog‘ida – **112,1** % va boshqa xizmat tarmoqlarida – **109,7** %ni tashkil etdi.

Respublikaning o‘rtacha darajasidan past bo‘lgan deflyator indekslari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **107,8** %, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – **106,4** %, qurilishda – **105,5** % hamda tashish va saqlash, axborot va aloqada – **103,1** % ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAIMning iqtisodiy faoliyat bo‘yicha deflyator indekslari



Mavzuga doir havola:
YAIM deflyator indeksi (choraklik)


II. Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha yalpi ichki mahsulot

Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha YAIMni ishlab chiqarish quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, *trln so‘m*		O‘sish sur’atlari, *% da*	YAIM o‘sishidagi hissasi, *f.p. da*
	2025- yil yanvar-sentabr	2026- yil yanvar-sentabr		
YAIM – jami	1 494,9	1 755,5	108,3	x
shu jumladan:				
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	1 431,1	1 683,3	108,3	7,9
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	232,0	261,7	104,6	0,7
sanoat	371,8	450,4	108,1	2,0
qurilish	118,1	140,2	112,5	1,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	201,8	247,1	115,1	2,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	111,2	135,4	118,1	1,4
boshqa xizmat tarmoqlari	396,2	448,5	103,2	0,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	63,8	72,2	108,4	0,4

Iqtisodiy o‘sish sur’ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog‘liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **95,9** % ini tashkil etdi va **8,3** % ga o‘sdi (YAIM o‘sishidagi hissasi **7,9** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **4,1** % ni tashkil etdi va **8,4** % darajasida o‘sish qayd etildi (YAIM o‘sishidagi hissasi **0,4** f.p.).

YAIMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, *yanvar-sentabr*



2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, YAIM tarkibida o‘zgarishlar kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan YAIM (YAQQ) tarkibida sanoatning ulushi **26,0** % dan **26,8** % ga, qurilishning ulushi **8,2** % dan **8,3** % ga oshdi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining ulushi **49,6** % dan **49,4** % ga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi **16,2** % dan **15,5** % ga kamaydi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **4,6** % darajasida o‘sish qayd etildi.

Ushbu tarmoqdagi o‘sish sur’atlari o‘rmon xo‘jaligi – **5,0** % ga hamda dehqonchilik va chorvachilik – **4,6** % ga o‘sishi bilan bog‘liq.

2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, sanoat tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi **450,4** trln so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **8,1** % ga o‘sish kuzatildi.


Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **8,6** % ga o‘sishi hisobiga ta’minlandi.

	Hajmi, *trln so‘m*		O‘sish sur’atlari, *% da*
	2025- yil yanvar-sentabr	2026- yil yanvar-sentabr	
Sanoat – jami	371,8	450,4	108,1
shu jumladan:			
tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i	39,1	44,4	103,1
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	305,5	373,1	108,6
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tarmog‘i	24,5	29,8	110,1
suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish tarmog‘i	2,7	3,1	101,6

2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi **140,2** trln so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davri bilan taqqoslaganda qurilish ishlari hajmi **12,5** % ga o‘sdi.

Jumladan, bino va inshootlar qurilishi **6,6** % ga, fuqarolik obyektlari qurilishi **29,0** % ga va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **33,1** % ga o‘sgan.

Qurilish tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi, *yanvar-sentabr*




2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi **831,0** trln so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning mos davriga nisbatan **8,9** % ga o‘sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **17,3** % ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **11,2** % ga, tashish va saqlash xizmatlari **16,1** % ga, axborot va aloqa xizmatlari **21,6** % ga, boshqa xizmatlar **3,2** % ga o‘sdi.

	Hajmi, *trln so‘m*		O‘sish sur’atlari, *% da*
	2025- yil yanvar-sentabr	2026- yil yanvar-sentabr	
Xizmatlar sohasi – jami	709,2	831,0	108,9
shu jumladan:			
savdo xizmatlari	130,7	161,7	117,3
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	71,1	85,4	111,2
tashish va saqlash	70,7	84,4	116,1
axborot va aloqa	40,5	51,0	121,6
boshqa xizmatlar	396,2	448,5	103,2

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to‘g‘ri keldi va **48,3** % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **40,1** % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta’mirlashning ulushi **11,6** % ni tashkil qildi.


Savdo tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi, *yanvar-sentabr*



2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, tashish va saqlash tarmog‘ining respublika YAIMidagi ulushi **5,0** % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati tarkibida eng ko‘p ulushi avtomobil transportiga to‘g‘ri keldi va **57,4** % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo‘shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **7,3** %, temir yo‘l transportining ulushi **8,5** %, yordamchi transport faoliyatining ulushi **18,1** %, havo transportining ulushi **8,7** % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi, *yanvar-sentabr*



III. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot dinamikasi

2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, aholi jon boshiga YAIM hajmi **44 692,3** ming so‘mni hamda 2025-yilning mos davriga nisbatan real o‘sish sur’ati **6,4** % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YAIM hajmi va o‘sish sur’atlari, *yanvar-sentabr*




IV. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,7** % ni tashkil etdi.


AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining **29,2** foizi aloqa xizmatlari, **54,0** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **10,0** foizi ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, veb-portallar, **4,2** foizi dasturiy ta’minotni chiqarish, qolgan **2,6** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta’mirlash xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati, *yanvar-sentabr*




V. Kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat

Tarkibi, *jamiga nisbatan*



YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi, *YAQQga nisbatan*




2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan **904,8** trln so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning **53,8** % i yaratilgan. Shundan **27,0** % i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, **14,6** % i sanoat, **11,7** % i qurilish tarmoqlari va **46,7** % i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **93,2** %, qurilishda **75,4** %, xizmatlar sohasida **50,9** % va sanoatda **29,4** % ni tashkil etdi.

VI. O‘zbekiston bo‘yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot

2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kuzatilmaydigan (uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati hamda yashirin) iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **21,8** % ni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-sentabrida – **23,9** %).

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning ulushi **57,6** % ni, xizmatlar sohasida **23,8** % ni, qurilishda **8,3** % ni va sanoatda **4,9** % ni tashkil etgan.

Mavzuga doir havola:
Kuzatilmaydigan iqtisodiyot

VII. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, rezident iqtisodiy birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o‘zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAIM O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy hududidagi barcha rezident birliklarni ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qamrab oladi.

YAIMni ishlab chiqarish usulida tarmoqlar kesimida baholash uchun Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT 2-tahriri)dan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga YAIM muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM hajmini mamlakatning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

YAIM fizik hajm indeksi (real o‘sish sur’ati) hisobot davridagi real YAIMning, ya’ni doimiy narxlarda (o‘tgan yilning tegishli davri narxlarida) hisoblangan YAIMning o‘tgan yilning tegishli davridagi joriy narxlardagi YAIMga nisbati sifatida belgilanadi.

YAIM deflyator indeksi iqtisodiyotdagi narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini tavsiflaydi va nominal YAIM (hisobot davridagi joriy narxlardagi YAIM)ning real YAIMga nisbati orqali hisoblanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot – muntazam statistika kuzatuvlarida to‘liq yoki qisman qamrab olinmaydigan, shuningdek, statistika ko‘rsatkichlarida aks ettirilishida bilvosita usullar bilan baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati – uy xo‘jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmasdan amalga oshiriladigan, mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

Yashirin iqtisodiyot – qonun bilan taqiqlanmagan, biroq soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va qonunchilik me’yorlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat hokimiyati organlaridan qasddan yashiriladigan iqtisodiy faoliyat.

VIII. Havolalar

Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom
Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom
Ishlab chiqarish usuli bo‘yicha yalpi ichki mahsulot

Chop etishga mas’ul:
Milliy hisoblar boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent,*
Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63
Aloqalar: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1060)